

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7878443>

Xadjiyeva Feruza Arifjanovna
Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oftalmologiya fani tushunchasi uning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi atroflicha muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *oftalmologiya, tarix, kasallik, tibbiyot.*

Oftalmologiya (yunoncha oftalmos - ko'z) - bu ko'rish organining tuzilishi va funksiyalarini, shuningdek uning kasalligini o'rganadigan fan. Oftalmologiya 19- asrda xirurgiyadan alohida fan sifatida ajralib chiqdi. Ko'z kasalliklari haqidagi ta'limot qadimgi sivilizatsiyalarda shakllana boshladi. Birinchi marta ko'z kasalliklari "Xammurapi qonunlari " kodeksida qayd etilgan (Bobil, mil. Avv. XVIII asr). Ko'z kasalliklari to'g'risidagi ma'lumotlarnio'zichiga olgan qadimgi Misrning birinchi papirusi asrimizdan oldingi XVII-XVasrlarga oiddir. Qadimgi Hindistonning sanskrit matnlarimiloddan avvalgi 3-4asrlarga oid bo'lib Sushrut va Xaraki ta'limotida ko'z kasalliklari to'g'risida ta'limot mavjud. Ushbu ta'limotga ko'ra yorug'likni sezadigan organ ko'z gavhari hisoblangan. Hindistonda 74 ta ko'z kasalliklari bilan tanish edilar, ular ko'z kasalliklarining kelib chiqishida ko'z tomirlari orqali kiradigan odam tanasidagi suyuqliklar (safro va qon) dagi o'zgarishlar sabab deb hisoblashgan. Xitoy kimyogarlari ko'z kasalliklarini o'rganish va davolashda faol ishtirok etishgan. Qadimgi Yunonistonda Gippokrat (miloddan avvalgi V-IV asrlar) o'z asarlarida ko'z kasalliklari haqida ma'lumot berib o'tgan. Aristotel (miloddan avvalgi IV asr) "yorug'lik –bu nurli tanadan chiqadigan shaffof vosita orqali ko'zning shaffof ligi tanani idrok etadigan harakat" deb ishongan. Kornelius Selsus (mil. Av. 1-asr) rangdor parda, kipriksimon tana, oldingi va orqa kameralarning mavjudligini isbotladi. Shuningdek, u glaukoma qaytarib bo'lmas ko'rlikni , katarakta qaytarib bo'ladigan ko'rlikni ajratib bergan. Nafaqat O'zbekiston balki insoniyat tarixida ko'z kasalliklarini davolash va uning anatomiya va fiziologiyasi IBN SINO bobomizning 1012-1024 yillarda chop qilingan "TIB QONUNLARI" kitobida keltirilgan. Unda ulug' bobomiz kataraktani limbdan 4mm uzoqdan skleral nish bilan reklinatsiya qilib davolagani va shox pardaning pastki qismidan kesib xrustalik kapsulasini yorib gavhar massasini chiqarib olish amaliyotini qo'llagani keltirilgan. Sels 17-asrning o'rtalarida kataraktani kamaytrangdor pardah texnikasini takomillashtirdi. Arab shifokorlarining o'rni katta (Ibn al-Xaytam Alxazen, eramizning X-XI asrlari) zamonaviy ko'rish nazariyalarining paydo bo'lishiga katta hissa qo'shgan "Optika kitobi" ni yozdi. O'rta asrlarda Yevropada nafaqat eksperimental fanlarda, balki amaliy tibbiyotda ham pasayish kuzatildi. Oftalmologiya

bilimlari asosan Sharqdan kirib kelgan. 13-asr oxirida ko'zoynak ixtiro qilinishi katta kashfiyot bo'ldi. 1583- yilda Georg Bartish Yevropada birinchi ko'z kasalliklarini konservativ va jarrohlik davolash bo'limlarini ochdi va oftalmologiya bo'yicha darslikni nashr etdi. Buyuk matematik va astronom Yogann Kepler XVII asr boshlarida asosiy yorug'lik qabul qiluvchi qurilma orqali yorug'lik nurlari retinada to'planishini isbotladi va oftalmologiya nazariyasini shakllantirdi. Uyg'onish davri ilmiy kashfiyotlari, shu jumladan, ko'rish organi anatomiyasi sohasida faollashuv bilan nishonlandi. O'sha davrda akkomodatsiya jarayoni o'rganildi. Keyinchalik Gelmgolts gavhar qavariqligining o'zgarishi kipriksimon muskullarning bo'shashishi va qisqarishi hisobiga kelib chiqishini tasvirlab berdi. 1756- yilda buyuk rus olimi M.V. Lomonosov rangni ko'rishning uch komponentli nazariyasini ilgari surdi. Akkomodatsiya va refraksiya nazariyalari F.K.Donders nomi bilan bog'liq . U "Akkomodatsiya va refraksiya anomaliyalari" asarida birinchi bo'lib gipermetropiya va miopiyalarda refraksiyaning ikkita variantini taqqoslab, presbiopsiyani akkomodatsiyaning buzilishi sifatida ajratdi. Kataraktning tabiati va davolash bo'yicha ko'plab bahsmunozaralar mavjud. 1745- yilda Jak Devil limbal kesma orqali katarakti olish haqida maqola e'lon qildi. Glaukoma klinik ko'rinishining birinchi aniq ta'rifi Richard Banister tomonidan berilgan. Glaukomaning mohiyatini anglash 1851 -yilda G. Gelmgoltsning oftalmoskop ixtiro qilganidan so'ng yuzaga keldi. XIX asr o'rtalarida.

Ko'z ichidagi bosimni o'lchash uchun Fon Grefe birinchi tonometrlar taklif qilindi. 1857- yilda Albrect fon Graefe glaukomaning o'tkir xurujida birinchi iridektomiyani amalga oshirdi. XIX asrda ko'ruv o'tkirligini o'lchash uchun jadvallar paydo bo'ldi. Rossiyada oftalmologiya XIX asrda faol rivojlana boshladi. 1805-1806 yillarda Moskva va Sankt-Peterburgda ixtisoslashgan ko'z kasalxonalarini ochildi. Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi Jozef Grubi boshchiligida Rossiyada birinchi (dunyoda ikkinchi) ko'z kasalliklari bo'limini yaratdi. Moskva oftalmologiya maktabining asoschisi A.N. Maklakov bo'ldi. A.N. Maklakov ko'z ichi bosimini o'lchashning zamonaviy usulini taklif qildi. Birinchi Moskva Tibbiyot Institutining oftalmologiya kafedrasining mudiri A.N. Maklakov.V.P. Odintsov oftalmologiya bo'yicha darslik va bir nechta kitoblarni chop etgan. Ko'z jarrohligi bo'yicha qo'llanmani K.X. Orlov chop qildi. L.G. Bellarminov, fiziologik optika va qorachiq reaksiyalarni aniqlash usullarini joriy qildi. Traxoma bilan kurashish uchun mamlakatning turli burchaklarida oftalmologik bo'limlar ochildi. 1929 yildan Leningradida harbiy tibbiyot akademiyasining oftalmologiya bo'limi o'z faoliyatini boshladi. V.N. Dolganov - ko'zlarni shikastlanishdan himoya qiluvchi turli xil asboblarning ixtirochisi bo'ldi va harbiy oftalmologiya bo'yicha bir qator qo'llanmalar yaratdi. Odessada oftalmologik maktab S.S. Golovin tomonidan tashkil qilib "Klinik anatomiya" darsligini chop qildi. V.P. Filatov (1875-1956) dunyoga mashhur Odessa Ko'z kasalliklari ilmiy-tadqiqot institutini yaratdi va ko'z transplantologiyasiga asos soldi. Dunyo oftalmologiyasi tarixida Svyatoslav Nikolaevich Fedorov (1927- 2000) tibbiyot fanlari doktori, professor, SSSR fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, MNTK mikroxirurgiya markazlarining bosh direktori,

SSSR bosh vaziri o`rinbosari , Sotsialistik mehnat qahramoni oftalmologiyada inqilobiy o`zgarishlar qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Балашевич Л.И. с соавт. Глазные проявления диабета. - СПб.: СПб МАПО, 2004. - 382 с.
2. Бровкина А.Ф. Офтальмоонкология: Руководство для врачей. - М.: Медицина, 2002.
3. Егоров Е.А. Неотложная офтальмология: учебное пособие. - М.: ГЭОТАР-МЕД, 2004. - 184 с.
4. Егоров Е.А., Ставицкая Т.В., Тутаева Е.С. Офтальмологические проявления общих заболеваний. - М., 2006. - 348-361 с.